

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Palvanova Sumbul Baxromovna

Bog'ot tumani 34-sonli maktab Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7583582>

Annotatsiya. Bugungi kunda dunyo miqyosida axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotganligi va bu boshqa sohalar qatorida ta'lim jarayoniga ham kirib kelib, uni yanada sifatli tashkil etishga o'z ta'sirini ko'rsatayotganligi barchamizga ma'lum. Bunday sharoitda inson faoliyatining nazariy va amaliy qirralari ham uzluksiz yangilanib turishi tabiiydir. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqida batafsil bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiyalar, boshlang'ich sinf o'quvchilari, o'qituvchi-pedagoglar va h.k.

Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritishining ilk kunlaridan boshlab ta'lim, madaniyat, fan, sport sohalarida tubdan burilish vujudga keldi, yangi islohatlar amalga oshirila boshladi. Yuksak rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadigan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yo'lga qo'yilib o'z faoliyatini boshlab yubordi. Undan ko'zlangan asosiy maqsad yoshlarni har tomonlama bilimni rivojlantirish, yetuk mutaxassislarni shakllantirish, o'zining qarashlari bilan dunyoni lol qoldiradigan kadrlarni tayyorlashdan iborat. Bugungi kunda milliy dasturda yangiliklarni joriy etish, yoshlarni ogohlikka chaqirish vazifalari bosqichma - bosqich amalga oshirilib kelinmoqda. Zamonaviy ta'lim olishga intiladigan, dunyoviy bilimlarni o'zida jamlashni xohlagan shiddati qarashlarida sezilib turadigan yuragida o'ti bor yoshlarga e'tibor qaratilib yusak tajribalardan kelib chiqqan holda ularni bilimni oshirishga tarbiyaviy salohiyatini yuksaltirishga shart -sharoitlar yaratilmoqda. Pedagogik faoliyat ham alohida va murakkab mehnat turi sifatida bundan mustasn emas. Pedagoglar o'z faoliyatlarida kafolatlangan natijalarni qo'lga kiritishga urinmoqdalar. XXI asrni olimlarimiz tomonidan axborot texnologiyalar asri deb tan olinganligi pedagogik va axborot texnologiyalari kun sayin barcha sohalarda rivojlanayotgani, jumladan, ta'lim sohasida ham yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish an'anaviy o'qitish usullaridan ko'ra samarali va yuqori natijalarga olib kelmoqda. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ko'zda tutilganidek, pedagogik va axborot texnologiyalari, komputerlashtirish va komputer tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini yangi axborotlar bilan ta'minlash rivojlanib bormoqda. Kamil insonni voyaga yetkazishda boshlang'ich ta'lim shubhasiz mustahkam poydevor yo'lini

o'taydi. Boshlang'ich ta'lim standartida o'quvchilarning o'qish malakalarining sifatlari va ijodiy fikrlay olishlari, o'z-o'zini nazorat qila bilishlari, nutq madaniyatini o'zlashtirishlari, husnixat bilan savodli yozish ko'nikmalarini egallashlari alohida qayd etilgan. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining mazmuni:

1. Ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va ulardan o'rinli foydalanish - ta'lim samarasini ta'minlashga yordam beradi.
2. Pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchi faoliyat doirasini aniq belgilab beradi.
3. O'qitish metodi deganda ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati tushuniladi. O'qitish usullari ta'lim jarayonidagi o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini oson o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. O'qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko'pgina metodlaridan foydalaniladi. Bola hayotida bog'chadan so'ng maktabning dastlabki davrlari muhim o'rin tutadi. Shu bois, boshlang'ich ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng ma'suliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi. Bu davrda bolaning zehni o'stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bu davrda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki, bu muddat bolaning o'yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya'ni o'quv faoliyatiga o'tganligi bilan harakterlanadi. Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'yin orqali o'z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o'zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim jarayonida qo'llanadigan didaktik o'yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi, ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini, o'qish motivlarini rivojlantiradi. O'qish motivlari ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o'rin tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan o'qish darslari jarayonida erkin va mustaqil qobiliyati shakllanadi. Mustaqil fikrlash qobiliyatining shakllanishi natijasida, o'quvchilar atrof olamdagi, jamiyatdagi

qonunlarni, shuningdek, asardagi ijobiy va salbiy qahramonlar orqali insoniy fazilatlarni anglash, bilimlarni chuqur o'rganish, keng fikrlash, tegishli qarorlar qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi. Pedagogik texnologiyalardan foydalanishda ta'limning mazmunini belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchilarning bilimlarni keng egallashi va ma'naviy fazilatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ta'limning natijasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash, ularni obektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishni samarali tashkil etish, pedagogik texnologiyalarning mazmuni, shakl va vositalari, ta'lim berishda pedagogik texnologiyalardan to'g'ri va unumli foydalanish uslublari, kafolatlangan natijaga erishish uchun olib borilayotgan ta'lim sohasidagi yangiliklarni o'rganish, amaliyotda foydalanish ishning amaliy ahamiyatini belgilaydi. Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo'lganligi uchun ta'lim samaradorligi pedagog va o'quvchi faolliligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog'liq. Ta'lim jarayonlarni doimiy tashkil etish uni boshqarish, yangi g'oyalarni har tomonlama joriy etish pedagogik jarayonlarning orasida yuzaga keladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida aytib o'tilganidek har bir darsga yangicha usulda yondashish ularni tushunilishi qulay bo'lishi sifatning yuqoriligini tashkil qilish uchun har bir dars zamonaviy axborot vositalari, kompyuter texnologiyalari bilan bir qatorda pedagogik texnologiyalarni ham qo'llashliklari kerak. Ta'lim jarayonlari yangi bilimlar bilan boyib bormoqda. Ular uchun yangi axborotlarni kiritish bugungi kunning asosiy vazifasiga aylanib ulgurdi. Pedagogik texnologiyalarni dars jarayonlarida tatbiq etish, darsning ta'limiy jihatdan to'la sifatini oshirish bugungi kunning eng asosiy vazifasidir. Texnologiyalardan aynan boshlang'ich davrda foydalanish yoshlarning bilim salohiyatlaridan kelib chiqqan holda pedagogdan yuksak ma'suliyatni talab etadi. Darsdagi o'quvchilarning birday o'zlashtirishlari dars jarayonlarini qabul qila olishlari mahorat darslariga bog'liq. Bu davrda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim -tarbiyaning maqsadiga mos bo'lgan holda olib borilishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi berilayotgan barcha qulayliklardan oqilona foydalanish, ko'nikmalarni hosil qilish, bolaning ijodkorligini yuzaga chiqarish, tafakkurini o'stirish, savodxonligini shakllantirish, fanlarni tez va oson sifatli egallashga ko'maklashish, milliy g'oyani singdirib borish, shaxsning manaviyatini har tomonlama boyitishdan iborat. Bolada yuqoridagi jarayonlarni yuzaga keltirish natijasida tafakkur ulg'ayib boradi.

Pedagogik texnologiyalar tushunchasi o'qituvchining ta'lim berish vositalari yordamida o'quvchilarga shartsharoit yaratish ularga o'zining ta'sirini ko'rsata olish, faoliyatining mahsuli sifatida ulardan oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirishdan iboratdir. Shiddat bilan rivojlanadigan yangilanayotgan yurtimizda pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi. Bunday imkoniyatlardan kelib chiqib insoniyat ham o'zining bilimlarini zamonaviylashtirishi yangi - yangi g'oyalarni o'ylab topishga uni hayotga tatbiq etishga majbur. Butun dunyo olimlarining etirof etisharicha 21 -asr zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlangan davr. Olimlarimiz bu davrni kompyuter texnologiyalar davri deb ataydilar. Pedagogik va zamonaviy texnologiyalarning yutug'i ta'limning har bir sohasida ko'zga yaqqol tashlanib ko'rilmoqda. Shuning uchun ham uzluksiz ta'limning deyarli har bir sohasida yangilik qilish yoshlarni qiziqishlarini yuzaga chiqarish barcha fanlarni qamrab olgan bilimlarni bera olish pedagogning mahoratiga bog'liqdir. Ta'limda qo'llanadigan har bir usul doimo yangilikka undashi, yoshlarning fikr, so'z erkinligi, muloqot, shaxsiy qarashlarning yuzaga chiqarishi zamonaviy aql idrokini vujudga keltirishi, uni har sohada qo'llay olishiga bog'liq. Dars jarayonlarida qo'llanadigan pedagogik texnologiyalar natijasida o'quvchilarda bir-birlari bilan o'zaro raqobat yuzaga keladi. Uning natijasida darsning samarasi, fanning o'zlashtirilishi yaxshilanadi.

References:

1. Azizxo'jayeva N.N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" T. 2006
2. B.Ziyamammedov, M.Tojiyev "Pedagogik texnologiyalar zamonaviy o'zbek milliy modeli"
3. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S. "Ilg'or pedagogik texnologiyalar" - O'qituvchi, 2007
4. Omonov X.T., Xattobov M.B. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" T., 2016